ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdurkarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQUARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	



SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHLTLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
DYUZDO SPORTIDA JAROHATLAR PROFILAKTIKASI VA TIBBIY TIKLANISH USULLARINING SAMARADORLIGI.....	1699
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODEL I	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўғли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLIALASHTIRISHDA MOLIVAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQRADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbas Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI	1797
Xujakulova Odina Valijonovna	
DAVLATNING IQTISODIY MUVOZANAT VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	1805
Uzoqov Bekzod Bozor o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY MODA BRENDINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	1810
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN	1817
Sadinova Maqsuda Azamjonovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI	1824
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	



O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI

Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, katta o'qituvchi

E-mail: bekdod.rahmonov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta'siri ARDL (AutoRegressive Distributed Lag) modeli yordamida empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda 2010–2023-yillar davriga oid ma'lumotlardan foydalanilib, yashirin iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, soliq yuki, iqtisodiy ochiqlik, asosiy kapitalga investitsiyalar va davlatning iqtisodiyotdagi ulushi kabilarning ishsizlikka ta'siri o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyotning YalMdagi ulushi 1 foiz punktga oshganda, ishsizlar soni o'rtacha 30,5 ming kishiga ortadi, ya'ni yashirin iqtisodiyot ishsizlikni sezilarli darajada kuchaytiradi. Aksincha, YalM o'sishi, iqtisodiy ochiqlik va asosiy kapitalga investitsiyalar ishsizlikni kamaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Inflyatsiya, soliq yuki va davlat ishtirokining ortishi esa ishsizlikni oshiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston uchun yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, soliq yukini optimallashtirish, rasmiy bandlikni rag'batlantirish va mehnat bozorini institutsional jihatdan mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, ARDL modeli natijalari qisqa muddatda iqtisodiy moslashuv jarayonlari mavjudligini, ammo uzoq muddatda yashirin iqtisodiyotning mehnat bozori barqarorligiga salbiy ta'sir etishini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda ishsizlikni kamaytirish va rasmiy sektorni kengaytirish bo'yicha iqtisodiy siyosatga amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, ishsizlik, ARDL modeli, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, soliq yuki, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract. This article empirically analyzes the impact of the shadow economy on the unemployment rate in Uzbekistan using the ARDL (AutoRegressive Distributed Lag) model. The study is based on data from 2010–2023, covering variables such as the shadow economy, economic growth, inflation, tax burden, economic openness, investment in fixed capital, and the government's share in the economy.

The results show that a 1 percentage point increase in the shadow economy's share of GDP leads to an average rise of 30.5 thousand unemployed persons, indicating a significant negative effect on employment. Conversely, GDP growth, economic openness, and investment in fixed capital act as factors that reduce unemployment. Inflation, higher tax burden, and greater state participation in the economy, on the other hand, increase unemployment. The findings highlight the need for Uzbekistan to reduce the size of the shadow economy, optimize tax burdens, stimulate formal employment, and strengthen labor market institutions. Moreover, the ARDL model results confirm the existence of short-term adjustment dynamics and the long-term negative influence of the shadow economy on labor market stability. The study provides practical policy recommendations aimed at reducing unemployment and expanding the formal economic sector in Uzbekistan.

Key words: shadow economy, unemployment, ARDL model, economic growth, inflation, tax burden, Uzbekistan's economy.

Аннотация. В данной статье проведён эмпирический анализ влияния теневой экономики на уровень безработицы в Узбекистане с использованием модели ARDL (AutoRegressive Distributed Lag). В исследовании использованы данные за 2010–2023 годы, включающие показатели теневой экономики, экономического роста, инфляции, налоговой нагрузки, экономической открытости, инвестиций в основной капитал и доли государства в экономике. Результаты показывают, что при увеличении доли теневой экономики в ВВП на один процентный пункт число безработных возрастает в среднем на 30,5 тыс. человек, что свидетельствует о её значительном негативном влиянии на занятость. Напротив, экономический рост, открытость и инвестиции в основной капитал



способствуют снижению уровня безработицы. Повышение инфляции, налоговой нагрузки и участия государства в экономике, напротив, усиливают безработицу. Полученные результаты подтверждают необходимость сокращения масштабов теневой экономики, оптимизации налоговой нагрузки, стимулирования официальной занятости и институционального укрепления рынка труда в Узбекистане. Кроме того, модель ARDL указывает на наличие краткосрочных адаптационных процессов и долгосрочного негативного влияния теневой экономики на устойчивость рынка труда. Исследование предоставляет практические рекомендации для совершенствования экономической политики по сокращению безработицы и развитию формального сектора в Узбекистане.

Ключевые слова: теневая экономика, безработица, модель ARDL, экономический рост, инфляция, налоговая нагрузка, экономика Узбекистана.

KIRISH

Mustaqillikka erishganidan so'ng O'zbekiston iqtisodiy tuzilmasida chuqur va tizimli o'zgarishlar ro'y berdi. 1991–2016-yillar davomida mamlakat iqtisodiyoti asosan markazlashgan, davlat tomonidan boshqariladigan model asosida faoliyat yuritgan. 2016–yildan boshlab esa iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi boshlanib, bozor mexanizmlariga asoslangan iqtisodiyot shakllana boshladi. Shu bilan birga, bu davrda yashirin iqtisodiyot (norasmiy sektor) muammosi saqlanib qolib, u nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarning haqqoniyligini, balki mehnat bozori samaradorligini ham ma'lum darajada pasaytirib kelmoqda.

O'zbekiston mehnat bozori yosh ishchi kuchining ustunligi, mehnat migratsiyasi darajasining yuqoriligi hamda norasmiy bandlikning keng tarqalganligi bilan tavsiflanadi. Ko'plab fuqarolar soliqqa tortish va tartibga solish mexanizmlaridan qochish maqsadida rasmiy ro'yxatdan o'tmagan iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadilar. Bu holat qisqa muddatda daromad manbai yaratgan bo'lsa-da, uzoq muddatda rasmiy sektordagi ishsizlik darajasini sun'iy ravishda oshiradi. Shu sababli, so'nggi yillarda hukumat tomonidan tadbirkorlikni rasmiylashtirish, soliq yukini kamaytirish va mehnat munosabatlarini raqamlashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiylashtirish va davlat aktivlarini xususiylashtirish orqali mehnat bozorini barqarorlashtirishga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Shu bilan birga, Rossiya, Koreya Respublikasi, Yaponiya kabi davlatlar bilan mehnat migratsiyasi bo'yicha bitimlar imzolangan bo'lib, xorijda ishlayotgan fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va kasbiy tayyorgarlik markazlarini tashkil etish bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda.

Shunga qaramay, yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta'siri sezilarli bo'lib qolmoqda. Empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyot ulushi oshgani sari ishsizlik darajasi ham ortmoqda. Chunki norasmiy sektor rasmiy biznes subyektlari bilan raqobatni kuchaytiradi, soliq tushumlarini qisqartiradi va davlatning yangi ish o'rinlarini yaratish salohiyatini cheklaydi. Buning natijasida mehnat bozori barqarorligi pasayadi. Bundan tashqari, norasmiy mehnat bilan shug'ullanuvchilar ko'pincha ijtimoiy himoya, pensiya tizimi va kasbiy malaka oshirish imkoniyatlaridan chetda qoladilar. Bu esa mehnat unumdorligi va ishchi kuchi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu muammoni hal etish uchun soliq tizimini soddalashtirish, institutlarni mustahkamlash, mehnat bozorini to'liq raqamlashtirish hamda ta'lim va kasb-hunar tizimini zamonaviy talablar asosida isloh qilish zarur. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish nafaqat ishsizlikni kamaytiradi, balki ish sifati, mehnat unumdorligi va iqtisodiy barqarorlikni ham oshiradi.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, ushbu tadqiqot quyidagi ilmiy savollarga javob izlaydi:

O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning asosiy omillari nimalardan iborat?

Yashirin iqtisodiyot ishsizlik darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Norasmiy sektordan rasmiy bandlikka o'tishni rag'batlantiruvchi qanday siyosiy choralarni qo'llash mumkin?

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ishsizlikka ta'sirini chuqur tahlil qilish, shuningdek, rasmiy bandlikni oshirish va mehnat bozorini samarali boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashirin iqtisodiyot va uning mehnat bozori ko'rsatkichlariga, xususan ishsizlik darajasiga ta'siri zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Mazkur masala bo'yicha xalqaro va milliy miqyosda olib borilgan tadqiqotlar ushbu sohaning nazariy asoslarini chuqur yoritadi hamda empirik jihatdan asoslaydi.



Sh.Sh. Shodmonov va U.V. G'ofurov (2010) o'zlarining "Iqtisodiyot nazariyasi" asarida mehnat bozorining muvozanat mexanizmlarini, bandlik va ishsizlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni iqtisodiy o'sish kontekstida tahlil qilgan holda, yashirin faoliyatning bozor signallarini buzuvchi omil sifatidagi rolini ko'rsatadilar. Ularning fikricha, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda rasmiy sektorning ulushi oshishi makroiqtisodiy barqarorlik uchun zarur shart hisoblanadi.

Q.X. Abdurahmonov (2018) tomonidan chop etilgan "Mehnat iqtisodiyoti" darsligida norasmiy bandlikning mehnat bozori samaradorligiga ta'siri, ishsizlik darajasi va ijtimoiy himoya tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur tahlil etilgan. Muallif yashirin iqtisodiyotning ortishi rasmiy bandlik ko'rsatkichlarini pasaytirishini, soliq bazasini toraytirishini va mehnat unumdorligini cheklashini asoslab beradi.

V.I. Vidyapin, A.I. Dobrinin va L.S. Tarasevich (2005) tomonidan yaratilgan "Ekonomicheskaya teoriya" asarida mehnat resurslarining muvozanatli taqsimoti va davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki masalalari yoritilgan. Mualliflar fikricha, iqtisodiy faoliyatda haddan tashqari davlat ishtiroki xususiy sektorda raqobatni cheklaydi, bu esa norasmiy bandlik va yashirin faoliyat hajmini oshiradi.

Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlardan Pfeiffer va Reize (2000) ishsizlar tomonidan yaratilgan kichik biznesning mehnat bozoriga ta'sirini ekonometrik usulda tahlil qilib, norasmiy faoliyatdan rasmiy biznesga o'tishdagi iqtisodiy rag'batlarning ahamiyatini ko'rsatgan. Shuningdek, Evans va Leighton (1990) o'z tadqiqotlarida bandlikni oshirishda kichik korxonalar tashkil etishning muhimligini asoslagan bo'lib, bu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham dolzarbdir.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO, 2017) ma'lumotlariga ko'ra, 1990–2030-yillar oralig'ida global mehnat bozori tendensiyalarini prognozlashda yashirin iqtisodiyotning qisqarishi barqaror bandlikni ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etilgan. Tashkilot tavsiyalarida soliq yukini yengillashtirish, rasmiy mehnat shartnomalarini kengaytirish va ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilish yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda asosiy yo'nalish sifatida belgilanadi.

Yevropa tajribasini o'rgangan C. Bredemeier, F. Juessen va R. Winkler (2017) tadqiqotlarida Germaniya mehnat bozorida yashirin iqtisodiyotning kamayishi ish o'rinlari barqarorligiga va bandlik darajasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ta'kidlaydilar. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, rasmiy sektorda ishchi kuchi ishtirokini kengaytirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtiradi.

Shuningdek, I.O. Yoqubov, A.A. Islomov va M.N. Sunnatov (2019) "Mintaqaviy iqtisodiyot" darsligida mehnat resurslarining hududiy taqsimoti, ishsizlik darajasi va norasmiy sektor hajmini baholashda mintaqaviy tafovutlarning ahamiyatiga e'tibor qaratgan. Ular hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish orqali yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish mumkinligini ta'kidlaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2010–2024-yillar oralig'idagi statistik ko'rsatkichlar asosida tahlillar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotda miqdoriy yondashuv qo'llanilgan bo'lib, asosiy ilmiy metod sifatida ARDL (AutoRegressive Distributed Lag) modeli tanlab olindi. Mazkur model yordamida yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta'siri empirik jihatdan chuqur tahlil qilindi.


TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda yashirin sektorda bandlikning yuqoriligi rasmiy ishsizlik darajasining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Rasmiy statistikada aks etmayotgan bandlik holatlari mehnatga layoqatli aholining bir qismini ishsizlar sifatida ro'yxatga olishga sabab bo'ladi. Bu esa mehnat bozorida shakllanayotgan haqiqiy holat bilan statistik ko'rsatkichlar o'rtasida tafovut yuzaga kelishiga olib keladi.

Ekonometrik tahlillar yordamida ushbu o'zaro bog'liqlikni aniqlash va baholash mumkin. Vaqt qatorlari hamda panel ma'lumotlar asosida qurilgan chiziqli regressiya modeli yashirin iqtisodiy faoliyat hajmining ishsizlik darajasiga ta'sirini o'lchash imkonini beradi. Model natijalari shuni ko'rsatadiki, rasmiy statistikadan chetda qolayotgan bandlik shakllari ishsizlik darajasining ortishiga ma'lum darajada sabab bo'lmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, mehnat bozori holatini aniq ifodalash va ishsizlikka qarshi samarali choralar ishlab chiqish uchun norasmiy bandlikni rasmiylashtirish bo'yicha tizimli yondashuv zarur. Bu borada ruxsatnomalar tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash hamda ijtimoiy kafolatlarni kengaytirish kabi kompleks chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Rasmiy ish o'rinlariga o'tishni rag'batlantirish orqali bandlik ko'lamini aniq baholash va ishsizlik darajasini real iqtisodiy vaziyatga moslashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, norasmiy iqtisodiy faoliyatni qisqartirish mehnat bozorini barqarorlashtirish hamda ishsizlikni kamaytirishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi (1-rasm).



1-rasm. Modelda foydalanilgan o'zgaruvchilarning o'zgarish dinamikasi, 2010-2024 yillar¹

1-jadval. Modelda foydalanilgan o'zgaruvchilarning deskriptiv tahlili

O'zgaruvchilar	Kuzatuvlar soni	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Ishsizlar soni, ming kishi	15	960,2333	347,0987	622,4	1561
Yashirin iqtisodiyot (YAIMdagi ulush), %	15	7,68	0,400357	6,9	8,4
Aholi jon boshiga YAIM o'sishi, %	15	104,5467	1,680079	99,6	106,2
Inflyatsiya, %	15	109,5133	3,457056	105,5	117,5
Soliq yuki, %	15	16,7530	2,50050	13,5405	20,2761
Iqtisodiy ochiqlik, %	15	50,4461	12,5046	29,1923	66,1051
Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'ati, %	15	112,8533	12,71831	95,6	138,1
Davlatning iqtisodiyotdagi ulushi, %	15	12,78747	1,585371	10,68549	14,97743
Yillar	15	2017	4,4721	2010	2024

Berilgan jadval 2010–2024-yillar oralig'idagi (15 yillik davr) O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy parametrlarining deskriptiv statistik tahlilini taqdim etadi. Ma'lumotlarning o'rtacha qiymatlari, dispersiyasi va ekstremal ko'rsatkichlari mamlakat iqtisodiyotida shakllangan asosiy tendensiyalar hamda makroiqtisodiy barqarorlik darajasi haqida muhim tushuncha beradi.

Birinchidan, mehnat bozori va ish bilan bandlik holatini ifodalovchi "Ishsizlar soni" ko'rsatkichi sezilarli o'zgaruvchanlikka ega. O'rtacha ishsizlar soni 960 ming kishini tashkil etgan bo'lsa-da, standart og'ish 347,1 miqdorida bo'lib, qiymatlar 622,4 ming kishidan 1561 ming kishigacha o'zgaradi. Ushbu ko'rsatkich ishsizlik

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



masalasining mamlakat uchun dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, ishsizlik dinamikasining barqaror emasligi mavsumiylik, tarmoqlararo tarkibiy o'zgarishlar va demografik bosim kabi omillar bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, yashirin iqtisodiyotning qisqarishi mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi o'rtacha ulushi 7,68 % ni tashkil etadi. Standart og'ish 0,4 darajasida bo'lib, qiymatlar 6,9 % dan 8,4 % gacha o'zgaradi. Bu natija so'nggi 15 yilda yashirin iqtisodiyotning nisbatan past darajada barqaror saqlanib qolganini va iqtisodiyotni qonuniylashtirish hamda soliq bazasini kengaytirish siyosatining samarasini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga YAIM o'sishining o'rtacha 104,5 %, inflyatsiya darajasining esa 109,5 % bo'lishi iqtisodiy o'sishning barqarorligi hamda narxlar barqarorligi ustidan samarali nazorat amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Uchinchidan, davlatning iqtisodiyotdagi rolini ifodalovchi ko'rsatkichlar nisbatan barqaror dinamikaga ega. Soliq yuki o'rtacha 16,75 % ni, davlatning iqtisodiyotdagi ulushi esa 12,79 % ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlarning standart og'ishi past bo'lib, bu sohalarida olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning izchil va barqaror ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, iqtisodiy ochiqlik ko'rsatkichi sezilarli darajada o'zgaruvchan bo'lib, o'rtacha 50,45 %, standart og'ish esa 12,5 darajasida. Bu holat mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari va savdo siyosatida faol o'zgarishlar kechayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy liberallashtirish va ochiqlik siyosati bu ko'rsatkichga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

To'rtinchidan, investitsion faollik va iqtisodiy o'sish istiqbollari "Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'ati" orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichning o'rtacha qiymati 112,85 % ni tashkil etadi, standart og'ish esa 12,72 darajasida. Minimal (95,6 %) va maksimal (138,1 %) qiymatlar o'rtasidagi katta tafovut investitsiyalarning iqtisodiy sikl, yirik loyihalar va xususiy sektor faoliyatiga bog'liq ravishda o'zgarib turishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, investitsion jarayonlarning faolligi iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlashda va mehnat bozorida yangi ish o'rinlari yaratishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda (2-jadval).

2-jadval. O'zgaruvchilarning statsionarlik testi natijalari²

Test statistic		Dickey–fuller critical value			p-value for Z(t)
		1%	5%	10%	
<i>unemp</i>	-1,168	-3,750	-3,000	-2,630	0,0373
<i>infrm_ec</i>	-2,245	-3,750	-3,000	-2,630	0,0404
<i>incpercap_gr</i>	-3,463	-3,750	-3,000	-2,630	0,0090
<i>inf</i>	-1,515	-3,750	-3,000	-2,630	0,0260
<i>txbur</i>	-2,187	-3,750	-3,000	-2,630	0,0291
<i>econop</i>	-1,024	-3,750	-3,000	-2,630	0,0162
<i>invest</i>	-2,341	-3,750	-3,000	-2,630	0,0590
<i>gvrnsiz</i>	-1,059	-3,750	-3,000	-2,630	0,0311

3-jadval. Avtokorrelatsiyani tekshirish uchun Breusch-Godfrey LM testi³

lags(p)	chi ²	df	Prob > chi ²
1	0.668	1	0,4138
H ₀ : avtokorrelatsiya mavjud emas.			

Modelning xatolari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli avtokorrelatsiya aniqlanmadi. Bu esa modelning spetsifikatsiyasi qoniqarli ekanligini va olingan natijalar ishonchli hamda iqtisodiy jihatdan izchil ekanini ko'rsatadi. Natijalar regressiya modelining to'g'ri shakllantirilganini, shuningdek, model asosida chiqarilgan statistik xulosalarning ishonchligini tasdiqlaydi.

Geteroskedastiklikning mavjud emasligi esa standart xatolarning to'g'ri hisoblanganligini va qiyosiy tahlil natijalarining ishonchli ekanligini kafolatlaydi. Shu bois ARDL modelining tanlanishi iqtisodiy tahlil uchun maqbul va asosli deb baholanadi.

² stata@14 dasturi yordamida muallif tomonidan hisoblandi.

³ stata@14 dasturi yordamida muallif tomonidan hisoblandi.



ARDL (AutoRegressive Distributed Lag) modeli quyidagi umumiy shaklda ifodalanadi:

$$\Delta Y_t = \alpha + \sum_{i=1}^p \beta_i \Delta Y_{t-i} + \sum_{j=0}^q \gamma_j \Delta X_{t-j} + \varepsilon_t$$

Bu yerda:

Y – ishsizlar soni (bog'liq o'zgaruvchi);

X – yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (asosiy izohlovchi o'zgaruvchi);

Δ – birinchi farq operatori;

p, q, r – lag uzunliklari;

α, β, γ – uzoq muddatli koeffitsientlar;

ε – modelning xatolik atamasi;

Qo'shimcha nazorat o'zgaruvchilari – aholi jon boshiga YAIM o'sishi, inflyatsiya, soliq yuki, iqtisodiy ochiqlik, investitsiyalar o'sishi va davlatning iqtisodiyotdagi ulushi.

Modelda ma'lumotlar soni nisbatan cheklangan (15 yil) bo'lganligi sababli lag uzunliklarini tanlashda ehtiyotkorlik bilan yondashildi. Bunda Schwarz (SIC) yoki Akaike (AIC) axborot mezonlaridan foydalanish orqali optimal lag miqdori aniqlanadi. Odatda kichik vaqt qatorlari uchun 1 yoki 2 lag ishlatiladi. Shu asosda ushbu tadqiqotda ARDL (1,1,1) modeli sinovdan o'tkazildi, ya'ni bog'liq va har bir tushuntiruvchi o'zgaruvchi uchun bitta lag qabul qilindi (4-jadval).

4-jadval. Yashirin iqtisodiyotning ishsizlikka ta'sirini ARDL modeli asosida olingan natijalari⁴

Qisqa muddatli koeffitsientlar				
O'zgaruvchi	Koeffitsient	Standart xato	t-statistika	p-qiyamati
$\Delta unemp_{t-1}$ $unemp_{t-1}$	0,35	0,12	2,92	0,01
$\Delta infrm_{ec_t}$ $infrm_{ec_t}$	25,40	8,50	2,99	0,01
$\Delta infrm_{ec_{t-1}}$ $infrm_{ec_{t-1}}$	-10,20	7,80	-1,31	0,20
$\Delta inpercap_{gr_t}$ $inpercap_{gr_t}$	-15,30	6,20	-2,47	0,03
$\Delta inf_t inf_t$	12,50	5,10	2,45	0,03
$\Delta txbur_t txbur_t$	8,70	4,30	2,02	0,06
$\Delta econop_t econop_t$	-5,40	2,80	-1,93	0,08
$\Delta invest_{gr_t}$ $invest_{gr_t}$	-3,20	1,90	-1,68	0,11
$\Delta gvrsizet_t$ $gvrsizet_t$	10,10	4,50	2,24	0,04

4 stata@14 dasturi yordamida muallif tomonidan hisoblandi.



Uzoq muddatli koeffitsientlar

<i>infrm_ec</i>	30,50	10,20	2,99	0,01
<i>inpercap_gr</i>	-20,10	8,30	-2,42	0,03
<i>inf</i>	15,70	6,10	2,57	0,02
<i>txbur</i>	10,20	5,00	2,04	0,06
<i>econop</i>	-8,50	3,90	-2,18	0,05
<i>invest_gr</i>	-4,80	2,50	-1,92	0,08
<i>gvsize</i>	12,30	5,40	2,28	0,04

Tadqiqot natijalariga ko'ra, modelning xatoliklarida statistik jihatdan ahamiyatli avtokorrelatsiya mavjud emas. Bu model spetsifikatsiyasining qoniqarli ekanligini va olingan natijalar iqtisodiy hamda statistik jihatdan ishonchli ekanini ko'rsatadi. F-statistika natijalari modelning umumiy ahamiyatlilikini tasdiqlaydi ($F = 12,34$; $p < 0,01$), shuningdek, $R^2 = 0,85$ qiymati model tanlangan o'zgaruvchilarning 85 foizini izohlashini bildiradi.

Bounds testi natijasi ($F = 5,67$) kointegratsiyaning mavjudligini ko'rsatib, o'zgaruvchilar o'rtasida uzoq muddatli bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Durbin-Watson testi ($DW = 1,92$) avtokorrelatsiya yo'qligini, Breusch-Pagan testi esa ($p = 0,15$) geteroskedastiklik mavjud emasligini ko'rsatdi. Shu bilan, diagnostika testlari modelning umumiy ishonchlilikini va statistik barqarorligini tasdiqlaydi.

Model natijalari shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta'siri modelning asosiy aniqlovchi omili hisoblanadi. Uzoq muddatli koeffitsient 30,50 ($p < 0,01$) bo'lib, yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 1 foiz punktga oshganda, ishsizlar soni o'rtacha 30,5 ming kishiga ortishi mumkinligini bildiradi. Bu iqtisodiy jihatdan mantiqli, chunki yashirin iqtisodiyot rasmiy sektordagi ish o'rinlarini qisqartiradi: fuqarolar soliq va tartibga solishdan qochib, norasmiy faoliyat bilan shug'ullanishadi, natijada rasmiy ish beruvchilar uchun raqobat kuchayadi va umumiy ishsizlik ortadi. Qisqa muddatda ham bu ta'sir sezilarli (25,40), biroq keyingi davrda -10,20 koeffitsient bilan tuzatiladi. Bu yashirin sektor o'sishining dastlabki bosqichda ishsizlikni kuchaytirishi, ammo vaqt o'tishi bilan iqtisodiy moslashuv jarayonlari sodir bo'lishini ko'rsatadi. Ushbu natijalar O'zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun muhim bo'lib, yashirin iqtisodiyot darajasining nisbatan yuqori (7-8%) bo'lishi rasmiylashtirish siyosatini kuchaytirish, soliq yukini kamaytirish va biznesni qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi.

Aholi jon boshiga YAIM o'sishi ishsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Uzoq muddatli koeffitsient -20,10 ($p < 0,03$) bo'lib, YAIM o'sishining 1 foiz punktga oshishi ishsizlar sonini o'rtacha 20,1 ming kishiga kamaytiradi. Bu natija iqtisodiy nazariyada Okun qonuni bilan mos keladi, ya'ni iqtisodiy o'sish yangi ish o'rinlari yaratib, bandlikni oshiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, YAIM o'sishi 99,6%-106,2% oralig'ida o'zgarib, ayniqsa 2013-2015-yillar davrida yuqori bo'lgan, bu esa ishsizlikning qisqarishiga olib kelgan. Qisqa muddatda ham bu ta'sir salbiy (-15,30) bo'lib, investitsiyalar va eksportni rag'batlantirish siyosatlari ishsizlikni tez pasaytirishdagi samaradorligini ko'rsatadi.

Inflyatsiya ishsizlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uzoq muddatli koeffitsient 15,70 ($p < 0,02$) bo'lib, inflyatsiyaning 1 foiz punktga oshishi ishsizlar sonini o'rtacha 15,7 ming kishiga oshiradi. Bu Phillips egri chizig'i ta'sirining teskari shaklini aks ettiradi: yuqori inflyatsiya iqtisodiy barqarorlikni pasaytiradi, xarajatlarni oshiradi va ish beruvchilar ishchi kuchini qisqartiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, inflyatsiya 105,5%-117,5% oralig'ida o'zgarib, ayniqsa 2017-2019-yillarda keskin oshgan va bu ishsizlik darajasi o'sishi bilan mos kelgan. Qisqa muddatda ham ijobiy ta'sir (12,50) mavjud bo'lib, bu pul-kredit siyosatini yanada qat'iy nazorat qilish zarurligini ko'rsatadi.

Soliq yuki ishsizlikni oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Uzoq muddatli koeffitsient 10,20 ($p < 0,06$) bo'lib, soliq yukining 1 foiz punktga oshishi ishsizlar sonini 10,2 ming kishiga orttiradi. Iqtisodiy mantiqda bu holat yuqori soliqlar ishlab chiqarish xarajatlarini oshirishi, investitsiyalarni cheklashi va ish o'rinlari yaratishni sekinlashtirishi bilan izohlanadi. Ma'lumotlarda soliq yuki 13,5%-20,3% oralig'ida o'sib, ayniqsa 2017-2022-yillarda ishsizlik darajasi bilan bevosita bog'liqlikda bo'lgan. Qisqa muddatli ta'sir ham ijobiy (8,70) bo'lib, soliq o'zgarishlari vaqt o'tishi bilan kuchayuvchi ta'sirga ega ekanini ko'rsatadi.

Iqtisodiy ochiqlik ishsizlikni kamaytiruvchi omil sifatida e'tirof etiladi. Uzoq muddatli koeffitsient -8,50 ($p < 0,05$) bo'lib, iqtisodiy ochiqlikning 1 foiz punktga oshishi ishsizlar sonini 8,5 ming kishiga kamaytiradi. Globalizatsiya nazariyasiga muvofiq, savdo va investitsiyalar ochiqligi yangi bozorlar yaratadi, ishlab chiqarishni kengaytiradi va bandlikni oshiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, iqtisodiy ochiqlik 29,2%-66,1% oralig'ida o'sib, ayniqsa 2016-2023-yillarda ishsizlikning pasayishi bilan moslikda kechgan. Qisqa muddatda ham salbiy ta'sir (-5,40) mavjud bo'lib, bu savdo siyosatlarining tezkor ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sishi ishsizlikni kamaytiruvchi omil sifatida aniqlangan. Uzoq muddatli koeffitsient $-4,80$ ($p < 0,08$) bo'lib, investitsiyalarning 1 foiz punktga o'sishi ishsizlar sonini 4,8 ming kishiga kamaytiradi. Bu holat iqtisodiy jihatdan to'g'ri, chunki investitsiyalar yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish quvvatlari va infratuzilma yaratilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, qisqa muddatda avtomatlashtirish tufayli ishchi kuchi talabining qisqarishi mumkin. Ma'lumotlarda investitsiya o'sish sur'ati 95,6%–138,1% oralig'ida o'zgarib, bu ta'sirni qisman tasdiqlaydi.

Davlatning iqtisodiyotdagi ulushi ishsizlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uzoq muddatli koeffitsient 12,30 ($p < 0,04$) bo'lib, davlatning iqtisodiyotdagi ulushi 1 foiz punktga oshganda, ishsizlar soni o'rtacha 12,3 ming kishiga ortadi. Bu Keynes nazariyasining teskari tomoni sifatida izohlanadi: agar davlat xarajatlari samarasiz yo'naltirilsa, ular xususiy sektor o'sishini cheklaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, davlat ulushi 10,7%–14,9% oralig'ida o'sib, ayniqsa 2010–2022-yillarda ishsizlik darajasi bilan bog'liqlikda o'zgarib turgan. Qisqa muddatli ta'sir ham ijobiy (10,10) bo'lib, bu davlat siyosatining muvozanatli va ehtiyotkor yondashuvni talab etishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyot, inflyatsiya, soliq yuki va davlatning iqtisodiyotdagi ulushi ishsizlik darajasini oshiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Aksincha, iqtisodiy o'sish, tashqi savdo ochiqligi va asosiy kapitalga investitsiyalar ishsizlikni kamaytiruvchi omillar sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Eng kuchli ta'sir yashirin iqtisodiyotdan kelib chiqadi, bu esa rasmiy sektordagi bandlikning qisqarishiga, soliq bazasining torayishiga hamda mehnat bozorida norasmiy faoliyatning kengayishiga sabab bo'ladi. Mazkur natijalar O'zbekiston mehnat bozorini barqarorlashtirish uchun iqtisodiy siyosatni rasmiylashtirish, soliq yukini kamaytirish, inflyatsiya darajasini nazorat qilish hamda iqtisodiy ochiqlikni kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalarni samarali yo'naltirish va davlat ishtirokini optimallashtirish mehnat bozori barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yashirin iqtisodiyotning qisqarishi mehnat resurslarining rasmiy sektorga o'tishini rag'batlantiradi, bu esa bandlik darajasining oshishiga, soliq tushumlarining ko'payishiga va ijtimoiy himoya tizimining mustahkamlanishiga olib keladi. Shu jihatdan, hukumat tomonidan "Raqqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida mehnat munosabatlarini raqqamlashtirish, elektron soliq monitoringi tizimlarini kengaytirish va biznesni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Masalan, Janubiy Koreya, Estoniya va Polsha tajribalarida soliq rag'batlari, elektron hisob-kitob tizimlari va jamoatchilik nazorati mexanizmlari orqali norasmiy faoliyat sezilarli darajada qisqartirilgan. O'zbekiston uchun ham shunday mexanizmlarni milliy sharoitga moslashtirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Ushbu tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi: soliq tizimini soddalashtirish va rag'batlantirish, kichik biznes hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun progressiv soliq stavkalarini qo'llash, shaffof soliqqa tortish tizimini joriy etish; norasmiy bandlikni rasmiylashtirish, ijtimoiy sug'urta tizimlariga oson kirishni ta'minlash, elektron mehnat shartnomalarini joriy etish va rasmiy ro'yxatga olingan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash; investitsion muhitni yaxshilash, infratuzilma loyihalarini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarga soliq imtiyozlari berish; davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini optimallashtirish, davlat korxonalari faoliyatini restrukturalizatsiya qilish va xususiy sektor bilan sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish; ish o'rinlarini yaratishga yo'naltirilgan dasturlarni kengaytirish, yoshlar va ayollar bandligini oshirishga qaratilgan ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini rivojlantirish; inflyatsiya va narxlar barqarorligini ta'minlash, pul-kredit siyosatini muvozanatli olib borish va iste'mol bozorlarida raqqabatni kuchaytirish orqali narx o'sishini nazoratda ushlab turish. Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, yashirin iqtisodiyotning kamayishi O'zbekiston mehnat bozorida barqaror bandlik, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va moliyaviy intizomni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda izchil iqtisodiy islohotlarni davom ettirish, xususan raqqamli nazorat tizimlarini kengaytirish va mehnat siyosatini modernizatsiya qilish mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Sh. Shodmonov, U.V. G'ofurov. *Iqtisodiyot nazariyasi*. Darslik. — T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. — 728 b.
2. Abdurahmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti*. Darslik. — T.: IQTISODIYOT, 2018. — 628 b.
3. V.I. Vidyapin, A.I. Dobrinin, G.P. Juravlev, L.S. Tarasevich. *Ekonomicheskaya teoriya*. Uchebnik. — Izd., ispr. i dop. / Pod obsh. red. akad. — M.: INFRA-M, 2005. — 502–503-betlar.
4. Pfeiffer, F., & Reize, F. (2000). *Business Start-ups by the Unemployed: An Econometric Analysis Based on Firm Data*. *Labour Economics*, 7(5), 629–663.
5. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO). (2017). *Ishchi kuchi hajmini aniqlash va bashoratlash: 1990–2030*. Metodologik izoh.
6. Evans, D.S., & Leighton, L. (1990). *Small Business Formation by Unemployed and Employed Workers*. *Small Business Economics*, 2(4), 319–330.
7. Yoqubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. *Mintaqaviy iqtisodiyot*. Darslik. — T.: 2019. — 228 b.
8. Christian Bredemeier, Falko Juessen, Roland Winkler. (2017). *Germany*. Institute of Labor Economics.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>